



XALQARO TA'LIM TIZIMIDA TEXNOLOGIYANING O'ZIGA XOSLIGI.

Faxriddinov Muhammad Faxriddin o'g'li

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika

instituti o'qituvchisi, O'zbekiston

Annotatsiya: Xalqaro ta'lism tizimida texnologiyaning o'ziga xosligi va ularning o'r ganish usullari.

Kalit so'zlar: Maktab, institut, zamonaviy dasturlar, chizmachilik, arxitektura, chiziq kompozitsiya, texnologiya, DUAL o'qitish tizimi.

O'zbekistonda ta'lism tizimini rivojlantirish istiqbolini belgilab beruvchi "Ta'lism to'g'risida"gi yangi tahrirdagi qonunda uzlusiz ta'lism tizimi hamda DUAL o'qitish tizimi oldiga umumiy hamda mutaxassislik madaniyatini yuksak, ijodiy va ijtimoiy jihatdan faol, jamiyat hayotida sodir bo'layotgan voqealarni tahlil eta oladigan, istiqbolli masalalarini hal etish qobiliyatiga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash vazifalarini qo'ydi. Mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga tadbiq etish jarayonida o'qituvchining yosh avlodga ta'lism va tarbiya berishda jamiyat oldidagi javobgarligi yanada ortib boraveradi.

O'zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning - "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi" kitobidagi ma'no mazmunda bir qancha yangi dasturlar, yangi konsepsiylar, yangi qonun hujjatlari qabul qilinishi nazarda tutilmoqda. Bu bilan mamlakatimizning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik rivojlanishining keyingi bosqichida amalga oshiriladigan islohotlar keng qamrab olinmoqda.[1]

Taraqqiyot strategiyasining tasdiqlanishi va muvaffaqiyatli amalga oshirilishi O'zbekistonda demokratik huquqiy davlat barpo etish hamda erkin fuqarolik jamiyatini rivojlantirish orqali inson qadrini ulug'lashga qaratilgan ulkan maqsad va vazifalarimizga erishish imkonini beradi.

Demak, zamonaviy sharoitda ishlab chiqarish malakali kadrlarga bo'lgan ehtiyojni ifodalovchi, uning qondirilishi uchun o'rta maxsus, kasb-hunar hamda oliy ta'lism tizimiga buyurtma berishi, ushbu buyurtmani qondirish maqsadida tashkil etiladigan ta'lism jarayonini moliyalashtirish va moddiy-texnik ta'minotni yaratishdagi ishtiroki bilan o'quv muassasalari faoliyatini samarali tashkil etilishiga ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki, barcha davrlarda ham o'qitish mazmuni, ta'lism tizimi ijtimoiy taraqqiyot bilan o'zaro muvofiqlikda rivojlanib kelgan. Ro'y bergan ijtimoiy o'zgarishlarning barchasi muayyan darajada ta'lism mazmunida o'z aksini topadi. Buni ilm-fan, texnika va texnologiya sohalarida ro'y bergan o'zgarishlarning o'qitish jarayoniga tatbiqi misolida ham ko'rish mumkin. Bugungi kunda ta'lism muassasalarida asrlar davomida insoniyat tomonidan asoslangan ilmiy bilimlardan yosh avlodni xabardor etish maqsadida tizimli, izchil, uzlusiz va, albatta, maqsadga muvofiq ravishda pedagogik faoliyat olib boriladi. XX asrda texnika va texnologiya sohalarining jadal rivojlanishi esa ijtimoiy, iqtisodiy hamda madaniy o'zgarishlar, ilm-fan, texnika va texnologiya yutuqlarini ta'lism mazmuniga singdirishda peshqadamlikka erishildi. Agarda ta'lism jarayonida o'tgan asrning 30- yillarida pedagogik



texnika sifatida usul va vositalar qo'llanilgan bo'lsa, 50- yillarda ta'lism jarayonini texnik vositalar yordamida tashkil etish, 60-yillarda esa o'qitish ishlarini dasturlash an'anasi shakllandi[2].

Mustaqillik yillarida jamiyatda bozor iqtisodiyoti munosabatlarining qaror topishi bilan bog'liq ravishda ishlab chiqarish jarayonida faoliyat yuritayotgan, shuningdek, oliy ta'lism muassasalarida tayyorlanayotgan kadrlarda nazariy bilimlarni amaliyotga bevosita, samarali tatbiq eta olish qobiliyatini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoj shakllandi. Oliy ta'lism muassasalarida bo'lajak mutaxassislarining o'quv va ishlab chiqarish faolligiga ega bo'lishlari yuqorida qayd etilgan ehtiyojni qondirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Shunday qilib, milliy dasturdan ko'zlangan maqsadlar juda ko'p. Avvalo, bu maqsad va vazifalarning to'la amalga oshishi mamalakatimizdagи ijtimoiy-siyosiy muhitning o'zgarishiga olib keladi, jamiyatda yangi shaxs – komil insonlar vujudga keladi.

Huddi shunday jamiyatimizning Milliy dasturda ko'zlagan maqsadlarga erishishi ta'lism-tarbiya tizimidagi ishlar samarasiga va avvalo, o'qituvchiga ham bog'liqdir. O'z davrining ruhini chuqur anglagan, keljakni ko'ra bilgan shaxslarni tarbiyalash o'qituvchi tarbiyachilarining bosh vazifasidir. O'qituvchiga jamiyat tomonidan qo'yiladigan talablar, turli xildagi ijtimoiy kuzatishlar, pedagogning individualligi, uning shu tariqa talablarga javob berishga sub'ektiv ayyorligi muayyan o'qituvchining pedagogik faoliyatiga naqadar tayyorligidan dalolat beradi.

O'qituvchi va o'quvchi munosabatidagi majburiy itoatkorlik o'rnnini ongli intizom egallashiga erishmog'imiz darkor. O'qituvchining bosh vazifasi: o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish ko'nikmalarini hosil qilishdan iborat. Ularda tafakkur qirralarini shakllantirish va rivojlantirish eng muhim ta'limi tarbiyaviy ish bo'lib hisoblanadi.

Aynan ta'lism tizimi uchun o'quv dasturiy hujjatlashtirishning yangicha mazmunini yangicha samarali pedagogik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirgan, chuqur bilimlarga ega bo'lgan va har tomonlama rivojlangan pedagogik kadrlar zarurdir. Shunga ko'ra, hozirgi paytda ta'lism tizimi uchun pedagoglarning tayyorgarlik sifatiga nisbatan alohida talablar qo'yilmoqda.

Ta'lism tizimining mazmunini belgilab beruvchi asosiy me'yoriy hujjatlardan biri davlat ta'lism standarti hisoblanadi. Ushbu metodik qo'llanma ham – DTSlarining optimal mazmunini belgilash va o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda ta'lism tizimining o'quv-uslubiy ta'minotida munosib o'rinni egallaydi.

Mustaqillikka erishgan O'zbekiston olimlari xorijiy mamlakatlar bilan iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va ilmiy-ma'rifiy aloqalar o'rнata boshladilar. Natijada, yurtimizga ilg'or va samarali texnologiyalar kirib kela boshladi. Shular qatori jahondagi progressiv pedagogik texnologiya degan tushunchalar ham kirib, pedagogik jamoatchiligidiz fikrini cho'lg'ab oldi.

Keyingi yillarda, Rossiya bilan O'zbekistonda pedagogik texnologiyani o'rganish yo'lida ancha ishlar qilindi. Shu jumladan, O'zbekiston olimlari bilan MDH davlatlari o'rtasida ham pedagogik texnologiyalar loyihalarini tuzishda ancha ishlar qilindi.

Pedagogik texnologiyani o'quv jarayoniga olib kirish zarurligini MDHga kiruvchi mamlakatlar ichida birinchilar qatorida har tomonlama ilmiy asoslab bergen rossiyalik olim



V.P.Bespalkoning fikricha, «Pedagogik texnologiya - bu o'qituvchi mahoratiga bog'liq bo'lmannan holda pedagogik muvaffaqiyatni kafolatlay oladigan o'quvchi shaxsini shakllantirish jarayoni loyihasidir».

Rossiya olimlaridan V.M.Monaxov: «Pedagogik texnologiya - avvaldan rejalashtirilgan natijalarga olib boruvchi va bajarilishi shart bo'lgan tartibli amallar tizimidir», degan qisqacha ta'rifni bera turib, uning asosiy xususiyatlariga e'tiborni qaratadi. «Pedagogik texnologiya - o'quv jarayonini texnologiyalashtirib, uning qayta tiklanuvchanligini hamda pedagogik jarayon turg'unligini oshirib, bu jarayon ijrochisining sub'ektiv xususiyatlaridan uni ozod qiladi», - deydi.

V.M.Klarin fikricha, Pedagogik texnologiya - o'quv jarayoniga texnologik yondashgan holda, oldindan belgilab olingan maqsad ko'rsatkichlardan kelib chiqib, o'quv jarayonini loyihalashdir.

O'zbekistonlik pedagog olim B.L.Farberman pedagogik texnologiyaga quyidagicha ta'rif beradi: Pedagogik texnologiya - ta'lim jarayoniga yangicha yondashuv bo'lib, pedagogikada ijtimoiy-muhandislik ongi ifodasidir. U pedagogik jarayonni texnika imkoniyatlari va insonning texnikaviy tafakkuri asosida standart holga solib, uning optimal loyihasini tuzib chiqish bilan bog'liq ijtimoiy hodisadir.

Pedagogik texnologiya atamasiga har bir didaktik olim o'z nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda ta'rif bergan. Hali bu tushunchaga to'liq va yagona ta'rif qabul qilinmagan. Ushbu ta'riflar ichida eng maqsadga muvofig'i YUNESKO tomonidan berilgan ta'rif sanaladi. "Pedagogik texnologiya - ta'lim shakllarini optimallashtirish maqsadida o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonining inson salohiyati va texnik resurslarni qo'llash, ularning o'zaro ta'sirini aniqlashga imkon beradigan tizimli metodlar majmuasidir" [3].

Texnologiya deganda, sub'ekt tomonidan ob'ektga ko'rsatilgan ta'sir natijasida sub'ektda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jarayon tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vosita va sharoitlardan foydalanib, ob'ektga yo'naltirilgan aniq maqsadli amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi.

Yuqorida keltirilgan tushunchalarini o'quv jarayoniga ko'chiradigan bo'lsak, o'qituvchi (pedagog)ning o'qitish vositalari yordamida o'quvchi- talabalarga muayyan sharoitlarda ko'rsatgan tizimli ta'siri natijasida ularda jamiyat uchun zarur bo'lgan va oldindan belgilangan ijtimoiy sifatlarni jadal shakllantiruvchi ijtimoiy hodisa yoki boshqacha aytganda, o'qituvchi tomonidan o'qitish vositalari yordamida o'quvchilarga ta'sir ko'rsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ularda oldindan belgilab olingan shaxs sifatlarini shakllantirish jarayoni deb ta'riflash mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning - "Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi". Uchinchi nashr. Toshkent. 2022. 416 bet.
2. U.Tolipov, M.Usmonboyeva "Pedagogik texnologiyalarning tadbiqiy asoslari". -T.: 2006 yil.
3. R.J.Ishmuhammedov, M.A.Yuldashevning "Ta'lim va



tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar” o‘quv qo’llanma 2012 yil 68 b.

4. Fakhreddinov M. Opportunities and prospects for using the Auto cad program in the education system. // Problems of increasing the innovative professional training of future primary school teachers. Collection of scientific articles. - Samarkand: Sam SU, 2019. Pages 152-155.

5. Faxriddinov M. F. Drobchenko N.V. The role and content of technology in the education system . Modern views and research – 2021 International scientific and practical Conference ISBN 978-1-83853-487-5.

6. Faxriddinov M. F. Drobchenko N.V. Using the Corel Draw computer program to develop students' creative abilities through drawing. Multidiscipline proceedings of digital fashion conference-2022. ISSN 2466-0744 Republic of Korea, Seul.